O'QUVCHI-YOSHLARDA ILMIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Isaqulov To'lqin Mahmud o'g'li
Oriental Universiteti Uzluksiz ta'lim pedagogikasi kafedrasi mudiri P.f.f.d PhD, dotsent

Annotatsiya. Maqolada o'quvchi-yoshlarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri sifatida ekanligi, o'quvchi-yoshlarning muayyan fanga, o'quv materiallariga nisbatan bilim va tushunchalarni egallashlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqolada o'quvchilarning o'z nuqtai nazarlari, dunyoqarash tushunchasi va ularning tarkibiy qismlari, o'quvchi-yoshlarning aql-idrokiga ilmiy dunyoqarashning ta'siri haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ilmiy dunyoqarash, xulq-atvor, insonparvarlik, axloq, vijdon, madaniyatlilik, intellektuallik, idrok, ijtimoiy faoliyat, tarbiya, estetik.

Аннотация. В статье говорится о формировании научного мировоззрения у учащихся-молодежи как об одном из актуальных на сегодняшний день вопросов, об особенностях приобретения учащейся молодежью знаний и понятий по конкретному предмету, учебному материалу. Также в статье рассматриваются собственные взгляды учащихся, понятие мировоззрения и их составляющие, влияние научного мировоззрения на интеллект учащихся-молодежи.

Ключевые слова: научное мировоззрение, поведение, гуманизм, мораль, совесть, цивилизованность, интеллектуальность, восприятие, общественная деятельность, воспитание, эстетика.

Annotation. The article tells about the fact that the formation of a scientific worldview in students-young people is as one of the pressing issues today, about the peculiarities of the acquisition of knowledge and concepts by students-young people in relation to a particular subject, educational materials. The article also reflects on the reader's own views, the concept of the worldview and their components, the influence of the scientific worldview on the intelligence of the reader-youth.

Keywords: scientific worldview, behavior, humanity, morality, conscience, culturality, intellectuality, perception, social activity, upbringing, aesthetics.

Kirish

Insonning o'ziga xosligi uning ijtimoiy faoliyatlardagi munoasabatlarga kirishish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Negaki, jamiki tirik mavjudodlar ichida faqat insongina fikrlash, mushohada qilish va ongli ravishda munosabat bildira

ISSN 3030-3907

olish layoqatiga ega. Agar inson fikrlashdan to‘xtasa, unda muayyan maqsad va o‘z faoliyatini nazorat qilish imkoniyati yo‘qoladi. U o‘z faoliyatini ongi va ixtiyoriga ko‘ra amalga oshiradi. Har bir insonning ongi, tafakkuri ilm bilan sug’orilgandagina u har qanday holatlarda ham teran fikr yurita oladigan, to’g’ri, ishonchli hamda chiroyli qarorlarni qabul qila oladigan barkamol inson fazilatlariga ega shaxs bo’lishi mumkin. Bugungi kunda ta’lim-tarbiya jarayonlarida har qanday pedagogning zimmasiga yuklatilgan muhim vazifalardan biri ana shunday barkamol inson fazilatlariga ega bo’lgan yoshlarni kamol toptirishdir.

Ye.V.Korotaevaning ta’kidlashicha, o‘quvchilar hamda o‘qituvchilarning sub’ektiv munosabatlarini o‘zaro teng hodisalar sifatida baholash mumkin emas[1]. O‘qituvchi – o‘qitish jarayonining birinchi sub’ekti va boshqaruvchisidir. O‘quvchi ham o‘quv-biluv jarayonining sub’ekti sifatida muayyan o‘quv faoliyatiga kirishadi. O‘qitish va o‘qish o‘zaro bog‘liq hodisalardir. Har bir o‘quvchining nuqtai nazarida uning hayotga bo‘lgan qat’iy munosabati ifodalanadi. O‘quvchi o‘zining hayotiy nuqtai nazarlarini mustaqil tarzda egallagan bilimlari va to‘plagan tajribalari zaminida tarkib toptiradi. Har bir o‘quvchining nuqtai nazari qanday tarkib topganligini, uning mazmun-mohiyati yaqqol namoyon qiladi. O‘quvchilar o‘z nuqtai nazarlarini o‘zlarini o‘rab turgan borliq asosida shakllantiradilar. O‘quvchining dunyoqarashi ta’lim jarayonida u egallagan qadriyatlar, axloqiy me’yorlar sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchining ongida uning hayot tarzi to‘liq aks etishi lozim. Shu tariqa u hayotning mavjud jihatlari, qadriyatlarning mazmun-mohiyatini anglab yetadi. O‘quvchilar ijtimoiy hayotda qabul qilingan asosiy me’yorlarni o‘zlashtirishlari uchun, ular kishilik hayoti va bu hayotni tartibga soladigan faoliyat turlarini ham yaxshi bilishlari talab etiladi. Shu tariqa o‘quvchilarning nuqtai nazarlari ularning xulq-atvor yo‘nalishlarini ham ifodalaydi.

Dunyoqarash nuqtai nazarga nisbatan kengroq va umumiyroq tushunchadir. U insonning barcha yetakchi munosabatlarini o‘zida ifodalaydi. Insonning har qanday nuqtai nazari dunyoqarashining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu tariqa o‘quvchilarning dunyoqarashlari ularning nuqtai nazarlari yordamida muloqotga kirishish imkonini beradi. Demak, shaxsning dunyoqarashi umumlashganlik xarakteriga ega.

V.A.Sovalevning fikricha, dunyoqarash inson hayotining dasturlashtirilgan, chuqur o’ylangan rejasi bo‘lib, u shaxsning hayot tarzini ham ifodalaydi[2]. Dunyoqarashning tarkib topishi esa, inson hayotining mazmuniga bog‘liqdir. Shaxsning muayyan mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan o‘quv hamda amaliy faoliyati natijasida dunyoqarashi tarkib topadi. Demak, o‘quv faoliyati natijasida

ISSN 3030-3907

o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarash shakllanadi. O‘quvchilar o‘z ixtiyorlari va imkoniyatlari doirasida mujassamlashgan bilimlarni o‘zlashtiradilar va ular ustida fikrlay boshlaydilar. Hayot ma’nosini anglashga bo‘lgan ehtiyoj tufayli o‘quvchilar o‘z hayotlarini anglashga intiladilar va uni hodisalar jarayoni emas, balki maqsadli jarayon sifatida tashkil etishga harakat qiladilar.

O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etiladigan shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-biluv jarayonining muhim vazifalaridan biridir. O‘quvchilarga turli sohadagi bilimlar va milliy-ma’naviy qadriyatlar taqdim etiladi hamda ular yordamida o‘qituvchilar o‘quvchilarni fikrlashga undaydilar. Mazkur bilimlarni o‘quvchilarning o‘zlari izlab topishlari, ularning mazmun-mohiyatini anglashlari, o‘z faoliyatiga singdirishlari, ularni bir-biridan ajrata olishlari lozim. Shundagina nuqtai nazarlar kabi dunyoqarash ham oydinlashadi va har bir o‘quvchining o‘ziga xos bo‘lgan ilmiy dunyoqarashi tarkib topadi. Har qanday ilmiy dunyoqarash bilimlarning mazmun-mohiyatini anglash natijasida vujudga keladi.

O‘quvchilarning dunyoqarashi quyidagi uchta tarkibiy qismdan iborat bo‘ladi: intellektual, hissiy-ixtiyoriy hamda amaliy harakatli faoliyat tajribasi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun, ularning intellektual faoliyatlari va o‘zlarigagina xos bo‘lgan shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish zarurligini ko‘rsatmoqda. O‘quvchilarda muayyan ilmiy, estetik nuqtai nazarlar, ma’naviy tamoyillar tizimi, me’yorlar va qat’iyatlar, hayotiy qadriyatlar, maqsadlar va ularga erishish yo‘llari, hayotiy harakatlarni amalga oshirish yo‘llari o‘rgatilishi lozim. Ilmiy dunyoqarash o‘quvchining moddiy olamga nisbatan ob’ektiv munosabatda bo‘lishini ta’minlaydi. Ular kishilarning kichik guruhlari va jamiyat a’zolari orasidagi hamkorlik va aloqadorlik shakllarini o‘zlashtiradilar.

O‘quvchi o‘zining ilmiy dunyoqarashi yordamida butun olam, tabiat va jamiyatni ko‘ra oladi va idrok etadi. O‘quvchilarning inson va jamiyat, undagi ijtimoiy munosabatlar, jamiyat a’zolari amal qiladigan qadriyatlarni tushunishi, mazkur jamiyatda o‘z o‘rnini anglashi ilmiy dunyoqarashining kengligiga bog‘liqdir. O‘quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ta’lim jarayoni bilan bir qatorda, ularni o‘rab turgan muhit va oila muhim o‘rin egallaydi. Alohida ilmiy nuqtai nazarlarning ifodachisi sifatida nafaqat birgina o‘quvchi balki o‘quvchilar guruhi namoyon bo‘lishi mumkin. Shu bilan bir qatorda, alohida bir o‘quvchining dunyoqarashi boshqalarinikidan keskin farq qilishi mumkin. Biroq, ularning barchasida umumiy jihatlar mavjud bo‘ladi. Shu tariqa dunyoqarashga asoslangan nuqtai nazarning muhim jihatlaridan yana biri, uning ob’ektivligidir.

ISSN 3030-3907

Ilmiy dunyoqarashning ob'ektivligi shundaki, bunda o'quvchi o'z manfaatlari va qiziqishlarinigina uylamaydi. U ko'pchilik manfaati yo'lida harakat qiladi. Shunga ko'ra o'quvchi o'z oldiga aniq maqsadlar qo'yadi va shu maqsadga erishish yo'lida muayyan harakatlarni amalga oshiradi.

O'quvchining dunyoqarashi alohida-alohida bloklarning uyg'unlashuvidan tarkib topadi. O'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish uchun o'quv-biluv jarayonida muayyan nazariy bilimlar bilan bir qatorda, u yashab turgan jamiyat va tabiatning mavjud holati, undagi muammolar va yechimlar, o'quvchilarning shaxs sifatida mazkur jamiyatda tutgan o'rinlari haqida ham izchil ma'lumotlar berish talab etiladi. O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-biluv jarayonini maqsadga muvofiq tarzda tashkil etish va uni samarali boshqarish natijasida, ularda izchil tarzda tarkib topgan nuqtai nazarlar vujudga keladi. O'quvchilarni bosqichma-bosqich, maqsadli tarzda nazariy bilimlarni egallashga yo'naltirish natijasida, ularda tabiat va jamiyat bilan ongli hamkorlik qilish ko'nikmalari vujudga keladi.

G'arb pedagog olimlaridan biri V.I.Drigin o'quvchilarning dunyoqarashi ularga izchil tarzda taqdim etilgan bilimlar yordamida shakllantirilishini ta'kidlaydi[3]. O'quvchi-yoshlarning faoliyatlari va harakatlaridagi qat'iylik dunyoqarashning mahsulidir. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlari uyg'unlashganlik xarakteriga ega. Shu tariqa o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlari zaminida ularning nuqtai nazarlari, tanlovlari, o'ziga xosliklari, yetakchi imkoniyatlari, onglilik darajalari, baholovchi munosabatlari, ob'ektiv qonuniyatlarni tushunish ko'lamlari, maqsadlari, qiziqishlari hamda hissiy, intellektual quvvatlari ifodalangan bo'ladi.

O'quvchi dunyoqarashining barqarorligi uning muayyan g'oyalarni tatbiq etish, ijtimoiy qimmatli faoliyat va ijtimoiy hayotga tayyorligini anglatadi. Bunday tayyorlik ulardagi nazariy-empirik bilimlarning muayyan darajasi orqali namoyon bo'ladi. Ilmiy dunyoqarash o'quvchilarning qo'rquv tug'diradigan vaziyatlardan himoyalanishlarini ta'minlaydi. Shaxsning muayyan masalaga oid nuqtai nazari uning dunyoqarashi barqaror bo'lishiga ko'maklashadi. O'quvchilarning barqaror nuqtai nazarlari va dunyoqarashlari bilan bog'liq holda tarkib topgan xulq-atvorlari ham barqaror bo'ladi. Bu ularning o'zlariga topshirilgan vazifalarni sitqidillik bilan bajarishlari, ularda mavjud bo'lgan mayllarning muhim ahamiyat kasb etishi, o'z mayllarini amalga oshirish imkonini beradigan harakatlarning qat'iyligi, qiyinchiliklarni his etishlari, salbiy kechinmalarga qaytaradigan javoblari, qiyinchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlarini izlashlari, salbiy kechinmalarining pasayishi, faoliyat ko'rsatish quvvatlarining ortishida namoyon bo'ladi.

Bunday o'quvchilarda kishilik dunyosidagi munosabatlar va o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilish kuchlidir. Ular butun borliqda ro'y beradigan hodisalarni

ISSN 3030-3907

ob’ektiv, mavjud holatlar sifatida idrok etadilar, ular orasidagi mantiqiy aloqadorlikni izlaydilar. Voqea-hodisalar orasidagi aloqadorlikni topishga intiladilar. Bunday o‘quvchilar aksariyat hollarda voqea-hodisalarning natijalarini bashorat qiladilar. Ular o‘z qarorlarida qat’iy turib noto‘g‘ri holatlarni inkor qiladilar, haqqoniy holatlar va vaziyatlarni isbotlashga intiladilar.

O‘quvchilarning dunyoqarashlarida barqarorlik vujudga kelganda barcha holatlar uyg‘unlashadi[4]. Bizning kuzatishlarimiz aksariyat o‘quvchilarda barqaror nuqtai nazar va ilmiy dunyoqarash shakllanmaganligini ko‘rsatdi. Ularning xulq-atvorida asosan quyidagilar namoyon bo‘lishi aniqlandi: vazifalar, mayllar, harakatlarning vujudga kelishi, ularni tatbiq etish istagi, qiyinchiliklarni anglash, salbiy hissiy ta’sir, mantiqsiz yechimlarga kelish, his etilgan qiyinchiliklarni murakkablashtirish, salbiy hissiyotlarning kuchayishi, faoliyat ko‘rsatishning yomonlashuvi, o‘qishga bo‘lgan mayllarning pasayishi kabilar.

Bunday o‘quvchilarda salbiy hissiy zo‘riqish kuzatiladi. Bu tarzdagi xulq-atvor natijasida ularda qo‘rquv hissi kuchayishi mumkin. Bu esa ularning xulq-atvorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday hollarda o‘quvchilar qiyin topshiriqlarni bajarishlari jarayonida o‘zlarini ko‘makdoshsiz, najotsiz qolgandek his etadilar. Ular o‘z hatti-harakatlariga nisbatan beqaror munosabatda bo‘ladilar.

O’quvchi-yoshlarda ilmiy dunyoqarash namoyon bo‘lishining quyidagi bosqichlari mavjud bo’lib bular:

- dunyoqarash yordamida o‘quvchilar ongida ularni safarbarlikka undovchi hissiyotlarning vujudga kelishi, o‘quvchi uchun ahamiyatli bo‘lgan hodisalar ro‘y berganda, dunyoqarash hissiy jarayon sifatida namoyon bo‘lishi, buning o‘quvchilar ruhiy holatlarining jadallashuvi, qo‘zg‘alishi kuzatiladi;
- natijada hissiyotlar va kechinmalarning belgilari aniqlanadi; voqea-hodisalar tajribaga asoslangan holda baholanganda o‘quvchilarda ijobiy kechinmalar vujudga keladi. O‘quvchilardagi ijobiy hissiyotlar tajribaga asoslangan harakatlarni qo‘zg‘atadi.
- ushbu bosqichda o‘quvchilarning hissiyotlari darajalari nazorat qilinadi. Kuchli hissiy qo‘zg‘alishlar sharoitida qo‘rquv, g‘azab, quvonch hissi saqlanib qoladi, ularni yo‘naltirish va nazorat qilish imkonsizdir.

O‘quvchilarning dunyoqarashlarida insonparvarlik g‘oyalarining ifodalanishi ularning bilish faoliyatlari va qiziqishlarini ham muayyan maqsadga yo‘naltiradi. Dunyoqarashning barqaror, izchil xarakterga ega bo‘lishi, boshqa hodisalar va holatlar haqida axborot olish ehtiyojini kuchaytiradi. Mazkur jarayonda o‘quvchilar barcha axborotlarni tizimlashtirish uchun mantiqiy operatsiyalarni bajarishga intiladilar. Shu tariqa insonparvarlikka asoslangan dunyoqarash o‘quvchi aql-zakovatini rivojlantirishga ko‘maklashadi. Aql-zakovat

ISSN 3030-3907

esa, o‘tkir aql-idrok, donishmandlik demakdir. O‘quvchining zakovati uning aqliy faoliyati tarkibiga kiradi. O‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilimlar ularning qarashlarini shakllantiradi. Bu esa ularning kundalik faoliyat tarzlari va xulq-atvorlarini tarkib toptiradi.

O‘quvchilarning dunyoqarashlari yetarli darajada insonparvarlashtirilmagan bo‘lsa, ularning ijodkorliklari va madaniyatlilik darajalari pasayadi. Iqtisodiy hamda huquqiy faoliyat jarayonida qonunlardan chekinishi vujudga kelganda o‘quvchilarning dunyoqarashlarida ham salbiy ko‘rinishlar hosil bo‘ladi[5]. Bunday o‘quvchilar axloq, vijdon, insoniy tashvishlar va yetuklik tushunchalarning mazmun-mohiyatini idrok eta olmaydilar. Ular o‘z atroflaridagi kishilarning harakat yo‘nalishlari, his-tuyg‘ulari, dardlari, kechinmalarini tushunishga intilmaydilar, o‘z yaqinlariga nisbatan befarqdirlar. Ular o‘z dunyoqarashlarini rivojlantirish, takomillashtirishga intilmaydilar. Bunday o‘quvchilar sinfda yakkalanib qoladilar va o‘z sinfdoshlari bilan ziddiyatlarga boradilar. Ularning yaqin, sirdosh do‘stlari deyarli bo‘lmaydi.

O‘quvchilarning dunyoqarashlarida insonparvarlikning yetarlicha tarkib topmaganligi natijasida, ularning shaxsiy taraqqiyotlarida noxush holatlar vujudga keladi. Bunday holatlarda o‘quvchilar ongiga dunyoning yaxlit ilmiy manzarasi shakllanmaydi va ular tabiiy-ilmiy bilimlarni yetarlicha egallash imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar. Ular juda hissiyotlarga beriluvchan, asabiy, o‘z-o‘zlarini takomillashtirish va rivojlantirishga yaqqol intilmaydilar. Ular tobora o‘sib borayotgan axborotlar oqimida o‘zlari uchun maqbul yo‘nalish tanlay olmaydilar va o‘z tengdoshlari, atrofdagilari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga kirishish imkoniyatiga ega emaslar. Ular o‘zlariga yuzaki qaraydilar va ularda ichki qarama-qarshilikning ustunligi kuzatiladi. Ularning hukmlari oddiy va bolalarchadir.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, ilmiy dunyoqarash o‘quvchi-yoshlarning aql-idrokini o’stirishga, balki hissiyotlarini ham tartibga solishga xizmat qiladi. O‘quvchilar ilmiy dunyoqarashining insonparvar xarakterga ega bo‘lishi natijasida ular ilmiy bilimlar va insonparvar ideallarni egallashga ko‘proq intiladilar. Ilmiy dunyoqarash yordamida o’quvchilar muayyan xulq-atvor me’yorlarini egallashga muvaffaq bo’ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Коротаева Е. В. Директор — учитель — ученик: пути взаимодействия // Директор школы № 5. 2000. С. 7 — 54.

2. Совалев В. А. Мировоззрение как выражение смысла человеческого бытия // Человек как философская проблема и мировоззрение. Владимир, 1982. С. 36.

ISSN 3030-3907

3. Дрыгин В. И. Научное мировоззрение, его предмет и функции. Саратов. 1981. С. 27

4. J.O.Shomurodov “THE ISSUES OF MEDIA COVERAGE AND INTERPRETATION OF THE SONGS “YO RAMADAN” JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY *WEB OF SCIENTIST:* ISSN: 1005-3026 https://dbdxxb.cn/ Original Research Paper

5. T.M.Isaqulov, J.O.Shomurodov Pedagogical opportunities of forming professional and cultural skills in students AMERICAN Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education *Volume 3, Issue 2, 2025 ISSN (E): 2993-2769*